

JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TOPISHMOQLARNING MATN-METOFORA SIFATIDAGI TALQINI

Mahmudova Nilufar To‘lqinjon qizi,

Qo‘qon davlat universiteti

G-mail: maxmudovanilufar722@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi zamonaviy tilshunoslikni tadqiq etish jarayonlarini til va uning egasi bilan bog‘liq doimiy aloqadorligini qayd etuvchi antroposentrizm g‘oyalarisiz tasavvur etish qiyinligi va bu paradigmaning turli yo‘nalishlari endilikda tildagi mavjud izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqayotganligi ilmiy tahlil qilingan. Maqola jahon va o‘zbek tilshunosligida topishmoq janrining matniy hamda metaforik tabiatiga doir nazariy qarashlarni qiyosiy tahlil qilishga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: topishmoq, matn, matn-metafora, antroposentrizm, lingvomadaniy birlar.

Аннотация. В данной статье анализируется тот факт, что современные процессы лингвистических исследований трудно представить без идей антропоцентризма, фиксирующих неразрывную связь языка с его носителем, а различные направления этой парадигмы выводят существующие языковые изыскания на качественно новый уровень. Статья посвящена сравнительному анализу теоретических взглядов на текстовую и метафорическую природу жанра загадки в мировом и узбекском языкознании.

Ключевые слова: загадка, текст, текст-метафора, антропоцентризм, лингвокультурные единицы.

Abstract. This article analyzes the fact that contemporary linguistic research processes can hardly be envisioned without the concepts of anthropocentrism, which note the constant interconnectedness between language and its speaker; furthermore, various directions of this paradigm are now elevating existing linguistic investigations to a new level. The article is devoted to a comparative analysis of theoretical perspectives regarding the textual and metaphorical nature of the riddle genre in global and Uzbek linguistics.

Keywords: riddle, text, text-metaphor, anthropocentrism, linguacultural units.

Kirish. Bugungi kun tilshunosligida olamning lisoniy manzarasini tiklash, milliy mentalitet va kognitiv tuzilmalarning tildagi in‘ikosini ochib berishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘lami tobora kengaymoqda. Lingvomadaniyatshunoslik va assotsiativ lingvistika yutuqlari xalq og‘zaki ijodi namunalarida inson omilining yetakchi o‘rnini ko‘rsatib berdi. Bu jarayonda millatning mifologik, maishiy va falsafiy qarashlarini o‘zida jamlagan topishmoqlarning lingvomadaniy tabiati va assotsiativ mexanizmlarini jahon andozalari darajasida tadqiq etish ehtiyoji mavjud.

Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy birliklarni faqatgina struktur-semantik qolipda emas, balki kognitiv va lingvomadaniy paradigmalar kesishmasida tadqiq etish yetakchi an‘anaga aylanmoqda. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi janrlari, xususan, topishmoqlar matnini antroposentrik tamoyillar asosida o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. An‘anaviy folklorshunoslikda topishmoqlar shunchaki poetik san‘at yoki didaktik o‘yin sifatida baholangan bo‘lsa, zamonaviy lingvopoetika va matn tilshunosligida ularga nisbatan yondashuv tubdan o‘zgardi. Bugungi kunda topishmoq alohida so‘z yoki birikma darajasidagi ko‘chim emas, balki inson tafakkuridagi murakkab mentallikni va milliy dunyo manzarasini o‘zida kodlagan, yaxlit matn-metafora sifatida talqin qilinmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida topishmoqni matn sifatida e'tirof etilishida ham turlichalik bor. Masalan, V.N.Toporov topishmoqni matnning asosiy mezonlariga javob berishi, ya'ni matn hosil qiluvchi va semiotik funksiyalarga ega ekanligini ta'kidlaydi: "Bog'liqlik – barcha komponentlar grammatik va semantik bog'langan. Predikativlik – logik subyekt va predikat munosabatlarining mavjudligi. Kodlanganlik – anglatuvchi (matn) va anglanuvchi (javob) o'rtasidagi ongli ravishda yashirilgan munosabat".[10.117]

Ammo V.A.Lukin ta'kidlashicha, "har qanday topishmoq ham matn bo'la olmaydi". Olimning ta'kidlashicha, har qanday matn (hatto eng kichik she'r ham) o'zining tashqi muhitidan qat'iy nazar mustaqil yashay oladi va ma'no bera olishi kerak. Mustaqil matn tugallangan kommunikativ akt bo'lishi, ya'ni o'z ichida ma'lum bir axborotni suhbatdoshiga to'liq yetkazishi kerak. Topishmoq esa o'z-o'zidan tugallangan mazmunga ega emas. Uning ma'nosi va kommunikativ maqsadi qachonki uning javobi (yechimi) topilgandagina oydinlashadi. Javobsiz topishmoq chala qolgan lisoniy zanjirdir.[4]

Muallif matnning eng asosiy kategoriyalaridan birisifatida uning ichki yaxlitligini (цельность) ko'rsatadi. Matnning ichidagi barcha komponentlar bir nuqtaga xizmat qilishi lozim. Topishmoq matnida semantika (ma'no) ataylab deformatsiyaga uchratiladi va qismlarga bo'linadi (parchalangan struktura). Undagi elementlar o'quvchini to'g'ri ma'noga yetaklamaydi, aksincha, chalg'itadi. Shuning uchun uning semantik yaxlitligi ichki elementlarida emas, balki matndan tashqaridagi reallikda (javobida) yashiringan bo'ladi.

Bizningcha, V.A.Lukin topishmoqni tarkibiy tugallanmaganligi sababli "kvazimatn" deb hisoblasa-da, lingvomadaniy nuqtayi nazardan topishmoq xalq tafakkuridagi yaxlit makrometaforani (matn-metaforani) aks ettirgani uchun to'laqonli mikromatn sifatida o'rganilishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada topishmoqlarni matn-metafora sifatida o'rganishda kompleks lingvistik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda qiyosiy, kognitiv va lingvokulturologik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy tahlil jahon va o'zbek tilshunosligidagi nazariy qarashlarni solishtirishga xizmat qildi. Kognitiv yondashuv orqali topishmoqlardagi metaforik fikrlash, konseptual sohalar va mental tuzilmalar o'rganildi. Lingvokulturologik tahlil esa topishmoqlarda aks etgan milliy madaniyat kodlari, antropomorf va zoomorf tasvirlarni aniqlash imkonini berdi. Shuningdek, matn tahlili metodi yordamida topishmoqning struktur-semantik xususiyatlari va uning dialogik tabiati yoritildi. Natijada topishmoq janri murakkab kognitiv va lingvomadaniy asosga ega bo'lgan yaxlit matn-metafora sifatida talqin qilindi.

Tahlillar va natijalar. Topishmoq – bu maxsus o'yin matni turi bo'lib, u muloqotda dialog ko'rinishidagi o'ziga xos ko'rinishni yuzaga keltiradi. Har qanday topishmoq ikki qismdan: topishmoq (savol) va javobdan iborat. Unda semantik aloqa o'ta yaqqol

bo‘lmasligi kerak, aks holda topishmoq qiziqarsiz bo‘lib qoladi. Topishmoq qayta tiklanuvchanlik (reproduktivlik) xususiyatiga ega”. [6]

“Topishmoq ko‘zda tutilgan mazmunni aniq, tushunarli, bevosita o‘qiladigan emas, aksincha, turli usullar, obrazlar vositasida atayin yashirin holatda, bilvosita – obrazli va mantiqiy fikrlash orqali o‘qiladigan qilib ifodalashga intiladi.

Oddiy gap-tasvirdan farq qilmaydigan topishmoqlarda ifodalangan hayotiy lavha aslida yashirin denotatning belgi-xususiyatini obrazli, yashirin ifodalovchi tasviriy ifoda bo‘lib, ulardagi so‘zlar ham oddiy so‘zlar emas, balki obrazdir yoki obrazli ifodaning bir komponentidir. [1.10-11]

“Topishmoqlar – o‘zining struktur va funksional tabiati bilan doston, ertak yoki maqollardan keskin farq qiluvchi, o‘ziga xos diskursiv qonuniyatlarga ega bo‘lgan matnlardir. M.Saparniyozova o‘z ishida J.Abdullayevning “Topishmoq xalqqa yaxshi tanish bo‘lgan ba’zi narsa-hodisalarning belgi-xususiyatlarining she’riy yoki nasriy formadagi turg‘unlashib kelgan, o‘ziga xos, ixcham, obrazli-metaforik ifodasi sifatidagi savol va tinglovchi tomonidan topilishi lozim bo‘lgan narsa-hodisaning nomini o‘zida mujassamlashtirgan javob qismidan iborat dialog shaklida aytiladigan iboradir [1]” – degan fikrini ma’lum darajada topishmoq xususiyatlarini aks ettiruvchi ta’rif ekanligini keltirgan holda o‘z mulohazalarini bayon etadi va quyidagilarni ta’kidlaydi: “Xususan, ta’rif boshida berilgan “xalqqa yaxshi tanish bo‘lgan” birikmasi ortiqcha qo‘llanilgan. Negaki, topishmoq har qanday predmet, hodisa haqida to‘qilishi mumkin. Topishmoqlar ichida unutilib ketgan predmetlar ham, yangi topishmoqlarda esa hali ommalashib ulgurmagan predmetlar ham uchraydi. Yuqoridagi ta’rifda topishmoq ibora deb ataladi. Bizningcha, topishmoq ibora emas, matndir. Ta’rif “topishmoq narsa-hodisalar belgi-xususiyatlarining she’riy yoki nasriy formadagi turg‘unlashib qolgan, o‘ziga xos, ixcham, obrazli metaforik ifodasi sifatidagi savol va tinglovchi tomonidan topilishi lozim bo‘lgan javob qismidan iborat matndir” tarzida berilishi maqsadga muvofiq”. [9] Anglashiladiki, M.Saparniyozova o‘zbek tilshunosligida ilk bora topishmoqni matn deb atadi.

U.Qobulova “topishmoqlar – xalq og‘zaki ijodining namunasi sifatida o‘zining barqaror shaklga egaligi, yashirin ma’nosining o‘ziga xosligi obrazlarining metafora asosida qurilishi bilan ajralib turadi”, deya izohlar ekan, Aristotel qarashlarini ham bayon etadi: “shu jihatdan, topishmoqning g‘oyasi – haqiqatan mavjud bo‘lgan narsa haqida gapirish va bu bilan birga, tamomila mumkin bo‘lmagan narsani birlashtirishdir. Bunga (ko‘p qo‘llaniladigan) so‘zlar orqali erishib bo‘lmasa, metaforalar orqali erishish mumkin”. [2.113-114]

Yuqorida sanab o‘tilganlardan shunday xulosaga kelish munkinki, topishmoqlar matn-metafora (metaforik matn)ni hosil qiladi. Metaforik matn uzoq yillardan beri jahon va o‘zbek tadqiqotchilari diqqatini tortib kelmoqda. [5.7]

O‘zbek xalqining obrazli tafakkuri, xayolot kengligi, voqelikni til vositasida aks ettirishidagi o‘ziga xosligini namoyon etuvchi topishmoqlarga xos shunday jihatlar borki,

ular lingvomadaniy tadqiqotlar uchun muhim obyekt sifatida xizmat qiladi. Topishmoqlarda dunyoni anglashning qadimiy usullaridan biri bo'lgan antropomorfizm yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda borliqdagi predmetlar insoniy qiyofada namoyon bo'ladi. Tadqiqotchilar qayd etganidek, "topishmoqlarning aksariyati metaforik matndan iborat". [9.125] Topishmoqlarga xos yana bir xususiyat shundaki, ularda lingvomadaniy kodlardan foydalanish yuqori darajadadir. Shu o'rinda aytish joizki, tildagi biror so'zning metaforik ma'nosi bilan lingvomadaniy kod sifatida voqelangan so'zning ma'nosi o'rtasida muayyan farq bor: lingvomadaniy kodni ifodalovchi so'z o'zi qatnashgan matn yoki jumla mazmuniga mustahkam bog'langan bo'ladi, uning ko'chma ma'noda qo'llanishida kontekstning roli muhimdir. Xususan, borliqni va undagi predmetlarni antropomorf lingvomadaniy kod, zoomorf lingvomadaniy kod va narsa-buyum lingvomadaniy kodlari vositasida ifodalash topishmoqlarda yuqori darajada amal qiladi. [7.44]

Xalq topishmoqlarida metafora yo'li bilan ko'chirishning asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

1. Narsa-predmetning nomi boshqa bir narsaga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi. Masalan: Katta-kichik besh o'rtoq, uyushsa bo'lar to'qmoq, (Barmoqlar) (o'zb.t., 42-bet); Yona yerda yapaloq archa. (Quloq) (o'zb.t., 48-bet); Uzun ichak, uchi tugunchak. (Ilon) (o'zb.t., 66-bet).

2. Topishmoqda yashiringan predmetning nomi boshqa narsadagi (ba'zan harakatga) belgisiga ko'chiriladi. Masalan: Oltin kelganda, kumush ketar, kumush kelganda, oltin ketar. – Quyosh, Oy (o'zb.t., 15-bet); ushbu topishmoqda oltin va kumush nomlari quyosh va oy nomlarini anglatib, belgi sifatida kelgan. Natijada, quyosh → oltinga, oy → kumushga ko'chgan va o'zaro o'xshashlik hosil qilgan; U yoqdan, bu yoqdan karvon o'tdi ko'rdingmi? – Chumolilar (o'zb.t., 82-bet); chumolilarning qator-qator yurishiga ishora sifatida topishmoqda karvon so'zi qo'llangan va chumolilarning harakatiga xos ko'chim o'z ifodasini topgan.

3. Xalq topishmoqlarida harakat-holatni ifodalab kelgan nom boshqa bir narsa harakatiga ko'chiriladi. Masalan: Tap-tap etib tomga chiqdim. – Otga minish (o'zb.t., 187-bet); To'rt mergan bir quduqqa o'q otar. – Sigir sog'ish (o'zb.t., 56-bet); Chiq-chiq etdi, uydan chiq dedi. – Chakki o'tishi (o'zb.t., 23-bet) [8].

Yuqoridagi topishmoqlarni bugungi zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qilingan tahlil farqlanadi. Masalan, "Oltin kelganda, kumush ketar..." topishmoq-matnida metaforizatsiya alohida o'ringa so'zda emas, balki butun matnda voqelanadi. Bu yerda xalq tilidagi ikki xil konseptual soha: "Qimmatbaho metallar" (oltin/kumush) va "Osmon jismlari" (Quyosh/Oy) bir-biriga yaxlit matn propozitsiyasi darajasida ko'chmoqda. Inson ongidagi ushbu dinamik manzara vertikal va gorizontal lisoniy aloqadorlik (bog'liqlik) orqali yagona metaforani yuzaga keltirgan.

Xulosa. Jahon va o‘zbek tilshunosligida topishmoq janriga bo‘lgan yondashuvlarning evolutsion taraqqiyoti shuni ko‘rsatadiki, ushbu janr sof strukturistik chegaralardan chiqib, antropotsentrik paradigmaning markaziy obyektlaridan biriga aylandi. V.A.Lukin singari olimlarning topishmoqni "kvazimatn" deb baholashi uning faqatgina tashqi strukturaviy yakuniga (javobiga) qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy kognitiv-lingvomadaniy yondashuv (xususan, o‘zbek tilshunosligidagi D.Xudoyberganova, M.Saparniyozova, Z.Muqimova qarashlari) topishmoqning to‘laqonli matn ekanligini isbotlaydi. Topishmoq – bu shunchaki mitti janr emas, balki inson ongidagi muayyan mentallik va milliy dunyo manzarasining qat‘iy ma‘naviy siqqlik asosida shakllangan, retsipient (tinglovchi) faoliyatini stimullashtiruvchi mukammal matn-metaforadir. Undagi lisoniy ko‘chimlar yaxlit matn tarkibida ssenariy va freymlarni hosil qilib, milliy madaniyat kodlarini avloddan-avlodga uzatishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev, J. X. (1994). O‘zbek xalq topishmoqlarining leksik-semantik xususiyatlari. Filol. fan. nomz. diss. Tashkent.
2. Afzalov, M. (1981). O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Topishmoqlar. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti.
3. Khudayberganova, D. (2015). O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik tadqiqi. Diss. ... dokt. filol. nauk. Tashkent.
4. Lukin, V. A. (2011). Khudozhestvennyy tekst: Osnovy lingvisticheskoy teorii. Analiticheskiy minimum. Os-89.
5. Muqimova, Z. (2024). Perevodnoe osvoenie i eyo metaforizatsiya v uzbekskom yazyke. Avtoref. diss. Tashkent.
6. Mukhtarullina, A. R., & Tuktarova, G. R. (2017). Kognitivno-semanticheskaya struktura teksta zagadki (na materiale angliyskogo, russkogo i bashkirskogo yazykov). Perspektivy Nauki i Obrazovaniya, 6(30), 126-132.
7. Qabuljonova, G. (2004). Metaforaning sistem-lisoniy tadqiqi. Nomz. diss. avtoreferati. Tashkent.
8. Qobulova, U. (2007). Topishmoqlarda metafora va uning kognitiv xususiyatlari. Nomz. diss. avtoreferati. Tashkent.
9. Saparniyazova, M. (2011). O‘zbek xalq topishmoqlarining sintaktik-semantik xususiyatlari. Filol. fan. nomz. diss. avtoref. Tashkent.
10. Toporov, V. N. (1987). Iz issledovaniy v oblasti anagrammaticheskoy struktury teksta (rumynskie zagadki). Issledovaniya po strukture teksta. Nauka.